

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA GAPNING IFODA MAQSADIGA KO‘RA TURLARINI O‘RGATISHNING SAMARALI METODLAR

O‘g‘iloy Darmonova

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini o‘rgatishning nazariy asoslari va amaliy metodlari kompleks tahlil qilinadi. Darak, so‘roq, buyruq va undov gaplarning lingvistik xususiyatlari, ularni o‘quvchilarga bosqichma-bosqich singdirish usullari, interfaol yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va didaktik o‘yinlarning ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda gap turlarining o‘rni ochib beriladi.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations and practical methods of teaching types of sentences according to their expressive purpose in primary school native language classes. The linguistic features of declarative, interrogative, imperative and exclamatory sentences, methods of their gradual assimilation to students, interactive approaches, innovative pedagogical technologies and the importance of didactic games are scientifically covered. The role of types of sentences in the development of students' speech competence is also revealed.

Аннотация

В данной статье представлен всесторонний анализ теоретических основ и практических методов обучения типам предложений в соответствии с их выразительной целью на уроках родного языка в начальной школе. Научно освещены лингвистические особенности повествовательных, вопросительных, повелительных и восклицательных предложений, методы их постепенного усвоения

учащимися, интерактивные подходы, инновационные педагогические технологии и значение дидактических игр. Также раскрыта роль типов предложений в развитии речевой компетенции учащихся.

Kalit soʻzlar: gap turlari, darak gap, soʻroq gap, buyruq gap, undov gap, boshlangʻich taʼlim, metodika, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, konstruktivizm, nutq kompetensiyasi

Kirish

Boshlangʻich taʼlim tizimi oʻquvchilarning keyingi bilim olish bosqichlari uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, ona tili darslari orqali bolalarda nutqiy faoliyat, tafakkur va muloqot madaniyati shakllantiriladi. Shu jarayonda gap va uning ifoda maqsadiga koʻra turlarini oʻrgatish muhim metodik yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari oʻquvchilarga nafaqat grammatik bilim beradi, balki ularning real hayotdagi kommunikativ faoliyatini ham rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan, bu jarayon faqat maʼlumot berish emas, balki oʻquvchini faol subyekt sifatida jalb etishni talab etadi.

Bugungi kunda konstruktivistik yondashuv, kommunikativ metodlar va interfaol texnologiyalar taʼlim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu bois gap turlarini oʻrgatishda innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlarining lingvistik asoslari

Tilshunoslikda gap nutqning asosiy sintaktik birligi hisoblanadi. Ifoda maqsadiga koʻra gaplar quyidagi turlarga ajratiladi:

Darak gaplar – voqea-hodisa haqida xabar beradi. Va gap oxiriga nuqta (.) qoʻyiladi:
Men uyga vazifamni bajarib keldim.

So‘roq gaplar – axborotni aniqlashtirishga qaratiladi, so‘rash ohangini beradi. So‘roq gaplarning oxiriga so‘roq belgisi (?) qo‘yiladi: *Bugun havo quyoshlimi?*

Buyruq gaplar – buyruq, iltimos, maslahat ma‘nolarini bildiradi. Yozuvda buyruq gaplarning oxiriga ma‘nosiga qarab ba‘zan nuqta (.), ba‘zan esa undov (!) belgisi qo‘yiladi: *Men senga kelasan dedimmi, albatta, kelasan!*

Undov gaplar – emotsional-ekspressiv ma‘no ifodalaydi. Ular his-hayajon, hayratlanish kabi ma‘nolarni beradi. Undov gaplarning oxiriga undov belgisi (!) qo‘yiladi: *Vooy, rosdan ham juda chiroyli gullar ekan!*

Bu tasnif o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini turli kommunikativ vaziyatlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik asoslar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq konkret tafakkurga ega bo‘ladi. Shu sababli abstrakt qoidalar emas, balki misollar asosida o‘rgatish samarali, vizual materiallar orqali tushuntirish muhim, faol ishtirokni ta‘minlash zarur.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘yin va muloqot jarayonida bilimni tezroq o‘zlashtiradi. Shu bois dars jarayonida interfaollik ustuvor bo‘lishi kerak.

O‘rgatishning zamonaviy metodlari

Kommunikativ yondashuv -bu metod o‘quvchini real nutqiy vaziyatga olib kiradi.

Masalan, “Do‘kondagi suhbat”, “Sinf dosh bilan savol-javob”. Natijada gap turlari tabiiy o‘zlashtiriladi, nutqiy faoliyat rivojlanadi, bola ohang yordamida gapirishni va gap turlarini ajratishni ham o‘rganib oladi.

Konstruktivistik metod- o‘quvchi bilimni o‘zi “kashf etadi”. Turli xil gaplar beriladi, o‘quvchilar o‘zlari uni farqlab, gapning turlarini aniqlab, tinish belgilarini qo‘yadilar. Bu ham o‘quvchiga mavzuni o‘rganish kata amaliy yordam beradi. Va bu metod mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Differensial ta'lim -har bir o'quvchining darajasiga mos topshiriq beriladi:

kuchli o'quvchilar → matn tuzadi;

o'rtacha → gap tuzadi;

boshlang'ich → tayyor gapni aniqlaydi.

Muammoli ta'lim (problem-based learning) -o'quvchilarga muammo qo'yiladi, ya'ni gap turlari bo'yicha savollar beriladi. Masalan, "Qaysi gap kuchliroq ta'sir qiladi va nima uchun?". Bunda o'quvchilar bir-birlariga turli xil gaplar aytib ko'rishadi, ma'nolarini va ta'sir qilish kuchini o'rganadilar. Bu usul tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

Interfaol metodlarning keng qo'llanilishi:

"Aqliy hujum" (Brainstorming)- bir mavzu asosida turli gaplar tuzish.

"Insert" metodi-m atndan gaplarni ajratib, turini belgilash.

"Cluster" (tarmoqlash)-gap"Sinkveyn" metodi.

Gap turlariga oid qisqa she'riy ifoda tuzish.

Didaktik o'yinlar tizimi

O'yinlar bilimni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi: "Kim tez topadi?", "Gapni o'zgartir" , "Savol yasash ustasi", "Rolga kirib gapir". O'yin orqali motivatsiya oshadi, dars qiziqarli bo'ladi, bilim mustahkamlanadi. O'quvchilarda mavzuga bo'lgan qiziqish ortadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Hozirgi kundagi zamonaviy darslarda AKT vositalaridan samarali foydalanish zarur. Interaktiv doska, multimedia taqdimotlar, onlayn testlar va onlayn aqlni charxlovchi o'yinlar o'quvchilarni darsga oson jalb qiladi va yangi mavzuni tushuntirish, o'tgan mavzuni mustahkamlash uchun juda ham qulaydir.

AKTlarning asosiy afzalliklari vizual ta'sirni kuchaytiradi, o'quvchi faolligi ortadi, individual ishlash imkoniyati yaratiladi

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish

Gap turlarini o'rganish mantiqiy fikrlash,

ravon nutq, savol berish madaniyati, emotsional ifoda kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu orqali dialog tuzish, hikoya yozish, sahnalashtirish kabi amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish mumkin.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini o'rgatish o'quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda kommunikativ, konstruktivistik, muammoli va interfaol metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, o'yin texnologiyalari, differensial yondashuv va AKT vositalari o'quvchilarni darsga faol jalb etadi hamda bilimni mustahkam o'zlashtirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilar nafaqat gap turlarini biladi, balki ularni real nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti
3. G'ulomov A. – Ona tili o'qitish metodikasi
4. Qosimova K. – Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
5. Tolipov O'., Usmonboyeva M. – Pedagogik texnologiyalar
6. Zimnyaya I.A. – Pedagogik psixologiya
7. Leontev A.A. – Nutq faoliyati nazariyasi



8. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilmiy maqolalar

9. Ziyonet va boshqa ta'lim portallari